

## Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2025- yil yanvar-dekabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **14 611,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,4** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 643,8** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2024- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar hajmi **11 967,6** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **114,0** % ni tashkil etgan.

#### Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan (**12 974,4** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 592,8** ming so'mga yoki **11,4** % ga o'sib, **15 567,2** ming so'mni tashkil etgan.

<sup>1</sup> 2024- yil hajmi va 2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 802,5** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **67,1** % ini, jumladan, **45,5** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

## II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

### Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati <sup>2</sup></b>	<b>14 611,4</b>	<b>100,0</b>	<b>113,4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	4 191,5	28,7	111,9
Shirin	168,6	1,2	131,3
Yangiyer	664,8	4,5	116,1
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	793,8	5,4	121,9
Guliston	391,6	2,7	114,2
Mirzaobod	457,2	3,1	124,4
Oqoltin	319,9	2,2	114,3
Sardoba	418,4	2,9	117,5
Sayxunobod	379,2	2,6	110,2
Sirdaryo	1 411,9	9,7	114,3
Xovos	459,9	3,1	114,4

#### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

#### [Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Guliston shahrining yuqori ulushi (**28,7** %) uning markaz maqomi bilan izohlanadi, u Sirdaryo viloyatining eng yirik shahridir. Markazda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Guliston rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

<sup>2</sup> Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

### III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **18,9** % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hisyasi **0,8** bandni tashkil etdi), moliyaviy xizmatlar **14,2** % ga (o'sishiga hisyasi **2,9** band), transport xizmatlari **14,3** % ga (o'sishiga hisyasi **1,4** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **11,4** % ga (o'sishiga hisyasi **3,4** band), savdo xizmatlari **12,7** % ga (o'sishiga qo'shgan hisyasi **2,3** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **13,6** % ga (o'sishiga hisyasi **0,3** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

#### Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>11967,6</b>	<b>14 611,4</b>	<b>113,4</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	476,5	631,1	118,9
moliyaviy xizmatlar	2 446,3	2 843,4	114,2
transport xizmatlari	1 160,6	1 483,4	114,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 060,7	1 362,3	111,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 593,2	4 365,2	111,4
savdo xizmatlari	2 137,1	2 538,5	112,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	248,7	304,9	113,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	309,4	390,3	110,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	276,2	359,9	121,6
ijara xizmatlari	174,2	196,5	105,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	212,5	254,5	111,3
shaxsiy xizmatlar	171,3	218,5	113,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	60,1	72,3	110,6
boshqa xizmatlar	701,5	952,9	118,7


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **29,9** %, transport xizmatlari **10,1** %, savdo xizmatlari **17,4** %, moliyaviy xizmatlar **19,5** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,3** %, ta‘lim sohasidagi xizmatlar esa **2,7** % ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **30,0** foiz, transport xizmatlari **9,7** foiz, savdo xizmatlari **17,9** foiz, moliyaviy xizmatlar **20,4** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,0** foiz, ta‘lim sohasidagi xizmatlar esa **2,6** foiz ulushni tashkil etgan.


**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo‘yicha tarkibi, % da**  
2025- yil yanvar-dekabr



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o‘shiga telekommunikatsiya xizmatlarining o‘shishi ta’sir ko‘rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **73,4** foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **8,4** foizga o‘sgan.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibidagi chakana savdoning o‘shishi kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **227,1** mlrd so‘mga yoki **12,2** foizga o‘shishi kuzatilgan.

### Savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati dinamikasi



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar sohasida kompyuterlar va periferik uskunalarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlari (**114,3** %), kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta‘mirlash xizmatlari (**111,8** %) xizmatlarida yuqori o‘shish sur‘ati qayd etildi. Mebellar va uy-ro‘zg‘or anjomlarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlarining **28,6** foiz ulushini tashkil etadi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog‘ uchun uskunalar (gazon o‘ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Sirdaryoda yashash va ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi sezilarli o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko‘payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog‘liqdir. Ushbu xizmatlarning o‘shishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar hajmining oshishi ta‘sir ko‘rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **99,0** % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning o‘shish sur‘ati **111,2** % ni tashkil etdi.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

##### Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** --- xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektiga bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagigicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

#### V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizam](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati.](#)